

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Babadjanov	
O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti	637
Э.Х.Мустаева	
Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации.....	641
З.А.Низомитдинова	
Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде	647
Н.М.Каримова	
Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности.....	652
Ш.Н.Саминжонова	
Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет.....	657
М.Э.Турсунова	
Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англицизмов	663
Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева	
Ключевые направления эволюции русского языкознания в XXI веке: возникновение научных парадигм	666
З.Т.Исаева	
Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур.....	672
Д.О.Турдалиев	
Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни».....	678
Н.Т.Ходжаева	
Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость	681
В.Гимадетдинова	
Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста	684
Э.А.Абдуллаева	
Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций	688
Б.Х.Абдуллаева	
Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века	693
У.М.Юлбарсова	
Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков.....	697
М.Т.Abdupattoyev	
Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralingvistik vositalar talqini.....	700
F.H.Islomova	
Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar.....	704
A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev	
Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni	707
G.A.Asomiddinova	
Stefan Sveygning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini	711
Sh.T.Axmadjonova	
Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari.....	714
Sh.G.Akbarova	
Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahlili	717
Д.С.Усмонова	
Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание.....	722
A.I. Saminov	
Oksyumoron komponentlarining mazmuniy munosabati	727
M.T.Xalilova	
Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida.....	732
N.A.Quldashev	
Raqamli asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish.	736
Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова	
Фреймовое представление лингвокультурологических единиц	739



UO'K: 364.6:34:378

MATN YARATISH MALAKASINI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ СОЗДАНИЯ ТЕКСТА

METHODS OF DEVELOPING TEXT CREATION SKILLS

Islomova Feruza Habibullayevna 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishda matn yaratish malakalarini rivojlantirishga yordam beruvchi metodlar, ularni tashkil etishning usul va yo'llari, ahamiyati yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Abstract

In this article, the methods that help to develop the skills of text creation in the improvement of written speech skills, the methods and ways of their organization, and the importance of them are expressed.

Аннотация

В данной статье излагаются методы, помогающие развивать навыки текстотворчества в совершенствовании навыков письменной речи, способы и способы их организации, а также их значение.

Kalit so'zlar: MYBT-4, yozma bahslar, erkin yozish metodi, argumentil esse, besh daqiqali esse, maktub metodi.

Key words: MYBT-4, written arguments, free writing method, argumentative essay, five-minute essay, method letter.

Ключевые слова: MYBT-4, письменные аргументы, свободный метод письма, аргументативное эссе, эссе-пятиминутка, метод письма.

KIRISH

Jahonning ko'plab rivojlangan davlatlarida nafaqat ona tilini mukammal bilish yoki til o'rganish, balki yuksak intellektga ega, salohiyatli, ma'naviyati yuksak, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni egallagan shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifa sifatida qaraladi. Globallashuv jarayonida tilga milliy madaniyat belgisi sifatida yondashuv kuchaymoqda. Bu esa shu tilda so'zlashuvchilarning o'z ona tilidan amaliy foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Til ta'limi oldiga muhim ijtimoiy buyurtma – ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish vazifasi qo'yilmoqda.

ASOSIY QISM

Fikrlarni yozma tarzda savodli bayon qilaolishga o'rgatish murakkab jarayon hisoblanadi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi.⁶⁴

O'quvchining yozma nutqini o'stirishda yosh, fiziologik xususiyatlarini, psixologiyasini inobatga olgan holda sabr bilan shug'ullanilgandagina qoniqarli natijaga erishish mumkin bo'ladi. Yozma nutq o'qituvchidan tekshirish uchun alohida vaqt talab qilganligi uchun ham ko'p o'qituvchilar ta'lim berishning bu usulini tanlamaydilar. Natijada esa o'z fikrini yozma tarzda bayon qila olmaydigan, fikrlamaydiganlar paydo bo'ladi. Psixologik adabiyotlarda yozish insonni fikrlashga o'rgatadigan eng mahsuldor usul ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Yozma nutqni rivojlantirish bolalarda kichik yoshdan boshlab amalga oshiriladi va yillar davomida rivojlantirib boriladi. Shu sababli ham bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish tavsiya etiladi. Bu jarayonda o'qituvchilardan sabr va chidam hamda o'quvchilarga bilim berish

⁶⁴ Muxtarova SH. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda yozma ishlarning ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences. № 5.2022, B.1167.

TILSHUNOSLIK

ishtiyoqi talab qilinadi. Bu jarayon faqat dars vaqtida emas, darsdan tashqari vaqtlarda – to‘garak mashg‘ulotlari va qo‘shimcha soatlarda ham olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqoladagi fikrlar asosan empirik metod asosida olib borilgan kuzatishlar natijasiga ko‘ra berilgan. Matn yaratishda samarali hisoblangan metodlar yordamida matn yaratishga o‘rgatish eksperiment metodi asosida kuzatildi va xulosalar chiqarildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Yozma ishlarni yozish u xoh insho bo‘lsin, xoh bayon yoki esse o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham alohida tayyorgarlik talab etiladigan jarayon hisoblanadi. O‘quvchi ona tili fanidan egallagan lisoniy bilimlarini yozma ishlarni yozish jarayonida amaliy qo‘llaydi. Yozma ishlarga tayyorgarlik jarayonida qo‘llash tavsiya etiladigan turli metodlar jarayonning samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

Masalan, metodist olimi T.Ziyodova tomonidan tavsiya etilgan **“MYBT – 4”moduli – matn yaratishning bosqichli tizimi**⁶⁵ o‘quvchilarning bog‘lanishli nutq tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali usul hisoblanadi. Bu usulda o‘quvchilar, asosan, oldin og‘zaki, so‘ng yozma nutq tuzishni o‘rganadilar. Matn yaratishning 4 bosqichli tizimi bo‘lib, u quyidagilardan iborat: so‘z tanlash, so‘z birikmalari hosil qilish, gap tuzish, matn yaratish. Bu usulda soddadan murakkabga qarab boriladi. **Masalan:**

So‘z: kitob

So‘z birikmasi: qiziqarli kitob

Gap: Do‘stimning juda ko‘p qiziqarli kitoblari bor.

Matn: Mening do‘stim Abdumurod. Uning uyida juda ko‘p qiziqarli kitoblari bor. Men uning uyiga borishni va kitoblarini o‘qishni yaxshi ko‘raman.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, yozish ko‘nikmalari kichik yoshdan boshlab shakllantiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari to‘g‘ri yozishni o‘rganib olganlaridan so‘ng, yuqori sinfga o‘tgach, bog‘lanishli nutq tuzish o‘rgatiladi. O‘quvchilarda gaplarni xatosiz va chiroyli yozish, imlo qoidalariga amal qilish kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi. O‘quvchilarni matn tuzishga, ya‘ni esse yozishga tayyorgarlik bosqichida yaxshi natija beradigan usullardan yana biri “Maktub” usuli hisoblanadi.

“Maktub” usulidan foydalanish ham bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Bu usulni 6-7-sinf o‘quvchilari uchun qo‘llash maqsadga muvofiq sanaladi. Bu usulda o‘quvchilar o‘zlari xohlagan insonga maktub yozadi. U xoh yaqin kishisi bo‘lsin, xoh ertak qahramoni, o‘quvchi unga maktub yozishi kerak bo‘ladi. Tajribada adabiyot darsida o‘tilgan Lengston Xyuzning “Rahmat, xonim” asari qahramoni Rojerning 20 yildan so‘ng unga yaxshilik qilgan xonimga xat yozishi topshirig‘i berildi. O‘quvchilar juda katta qiziqish bilan bu topshiriqni bajardilar. O‘quvchilar maktublarini yozib bo‘lgach, ularni o‘qituvchi tekshiradi va shundan so‘ng barcha o‘quvchi o‘z maktubini ifodali qilib o‘qib beradi. Yoki ona tili darslarida biror grammatik tushunchaga xat yozish tajribasini qo‘llasa bo‘ladi. Masalan, 10-sinf “Ona tili” darsligining 162-sahifasida qo‘shimoq haqida ma‘lumot berilgan. O‘quvchilarning qo‘shimoqni qo‘llash yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash yoki baholash maqsadida ularga shu tinish belgisiga maktub yozish topshirig‘i berilishi mumkin. Tajriba jarayonida o‘quvchilar quyidagicha maktub yozdilar:

“Salom, qadrdonim qo‘shimoq! Bu maktubni senga doim sening dastingdan past baho oluvchi o‘quvchi yozmoqda. Senga maktub yozishimdan maqsad, ozgina meni ham tushunishingni, yordam berishingni iltimos qilmoqchiman. O‘qituvchimiz seni boshqalarning gapini o‘z ichingga olishingni doim aytadi, lekin men buni hamisha unitib qo‘yaman. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni, kesatiq, piching, kinoya va boshqa ma’no uchun qo‘llangan so‘zlarni, badiiy asar, musiqa asarlari, spektakl va boshqalarning nomlarini; muassasa, tashkilot, korxonalar nomlarini, zavod, fabrika, mehmonxona, turli transport vositalarining shartli nomlarini, sinflar, buyruqlar, qarorlarning ayrim bandleriga qo‘shilib yoziladigan harflar: sinf, 9- “A”, sinf, 135 – “V” sonli qaror, 10-moddaning “B” bandi); baho ballari (“besh”, “to‘rt” yoki “a‘lo”, “yaxshi”); matn ichida kelgan maqollar, hikmatli so‘zlar, sarlavhalarni o‘z ichingga olishingni ham “Ona tili” darsligimizda yozilgan bo‘lishiga qaramay, yozayotganimda unutamam. Sendan iltimos, yozayotganimda yodimga tushib tur!!

⁶⁵ Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 81.

Bunday maktublarni xohlagan grammatik tushunchalarga nisbatan yozdirish mumkin. Ma'lumki, ona tili o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri bu o'quvchining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Kommunikativlikni shakllantirish borasida N. Fayziyeva: "...o'quvchilarda aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi juda dolzarbdir. Kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanish darajasi nafaqat bolalarni o'qitish samaradorligiga, balki ularning ijtimoiylashuvi jarayoniga va umuman shaxsning shakllanishiga ham ta'sir qiladi."⁶⁶ deb yozadi.

Maktub yozish kommunikativ aloqa turlaridan biri ekanligi ma'lum. Maktub yozar ekan o'quvchi his-tuyg'ularini boricha namoyon qila oladi, shu sababli ham bu mashg'ulotni qiziqish bilan amalga oshiradi. Bu o'quvchining ona tili ta'limidan ko'zlangan maqsad kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan birga o'rgangan lingvistik bilimlarini mustahkamlashga va esse yozish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchining yozma nutqini rivojlanishiga samarali ta'sir etuvchi usullardan yana biri "Yozma bahslar" metodi hisoblanadi. Tajriba jarayonida 10-sinf oquvchilari bilan yozma shaklda o'tkazildi. O'quvchilarga gapirmasliklari, faqat yozma tarzda bahslashishlari tushuntirildi. "Taqlid so'zlarni mustaqil so'z turkumi deyish mumkinmi?" mavzusida bahs tashkillandi. Natijada o'quvchilar bu muammo yuzasidan bahslashar ekan, morfologiya bo'limi bo'yicha o'rgangan bilimlarini esladilar, fikrlarini asoslashga harakat qildilar.

Bu usulni qo'llash jarayonida sinf ikki guruhga ajratiladi. O'qituvchi ularga bahs mavzusini e'lon qiladi. Oq qog'ozga guruhlar navbat bilan o'z argumentlarini yozadilar. Og'zaki so'z aralashtirish umuman mumkin emas. Bahs so'nggida guruhlar tomonidan yozilgan fikrlar taqdimotchi tomonidan o'qib beriladi.

Mazkur metod o'quvchilarning bahslashish qoidalarini o'zlashtirish bilan birga fikrlarini dalillashga ham o'rgatadi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish, matn tuzishda g'alizliklarga yo'l qo'yishlarining oldini olish maqsadida N.Mustafayeva tomonidan tavsiya etilgan "Ma'nodoshini top" usuli ham matn yaratish uchun tayyorgarlik bosqichida samarali metodlardan biri hisoblanadi.

"O'quvchilar sinf taxtasida navbat bilan oq qog'ozdan berilgan so'zning ma'nodoshini topadi. Masalan: Yozuvchi – adib, muallif, avtor. Qadimiy – ko'hna, osori- atiqqa, eski, azaliy. Bajarmoq – ijro qilmoq, amalga oshirmoq, ishlab chiqmoq. Yuz – aft, bashara, chehra, oraz. Bunda o'quvchining so'z boyligi oshadi. Yozma nutqda takroriy g'arizliklarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatiladi. Nutqning go'zal bo'lishiga e'tibor qaratiladi. So'zni to'g'ri qo'llash malakasi rivojlanadi"⁶⁷.

XULOSA

Xulosa o'rmda aytish kerakki, shu kabi metodlar orqali o'quvchilar sekin-asta esse yozishga tayyorlab boriladi. Bu metodlarni yoki essening "Argumentli esse", "Besh daqiqali esse", "Erkin yozish metodi" kabi turlarini yuqori sinflarda muntazam qo'llash o'quvchini har qanday yozma matnни qiynalмай, savodli yoza olishga o'rgatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muxtarova SH. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda yozma ishlarning ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences. № 5.2022, B.1167.
2. Зиёдова Т. Матн яратиш технологияси. – Тошкент: Фаң, 2007. – Б. 81.
3. Fayziyeva N Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish shakllari va usullari. – Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2024. – В.87
4. Mustafayeva N. Ona tili darslarida noan'anaviy oyinlar. – "Science and Education" Scientific Journal. November, 2020. – B.142.

⁶⁶ Fayziyeva N Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish shakllari va usullari. – Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2024. – В.87.

⁶⁷ Mustafayeva N. Ona tili darslarida noan'anaviy oyinlar. – "Science and Education" Scientific Journal. November, 2020. – B.142.